



Zo'ravonlik soyasida ulg'ayotgan bolalar: ijtimoiy muammo va huquqiy yondashuvlar

Tagaymuratova Gulchehra Tuychiyevna

Guliston davlat universiteti "Ijtimoiy
fanlar" kafedrası o'qituvchisi

gulchehratogaymuratova@gmail.com

Saparaliyeva Gulsara

Guliston davlat universiteti "Ijtimoiy
ish" yo'nalishi 4-kurs talabasi

gulsaraeshqulova80@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlari, ilmiy nazariy asoslari, bu masaladagi statistik ma'lumotlar, zo'ravonlikning ijtimoiy omillari, uning ijtimoiy va huquqiy oqibatlari va hamda oldini olish bo'yicha xalqaro va milliy tajribalar tahlil qilinadi. Bolalarning zo'ravonlik muhitida ulg'ayishi ularning ruhiy-psixologik holatiga, ijtimoiy moslashuviga va kelajakdagi shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi yoritib berilgan. Tadqiqotning maqsadi-zo'ravonlik muhitida ulg'ayotgan bolalarning ijtimoiy-psixologik holatini tahlil qilish, mavjud huquqiy mexanizmlarni o'rganish hamda ularni himoya qilishda samarali yondashuvlarni aniqlashdan iborat. Mavzuni o'rganishda va tahlil qilishda 2020–2025 yillardagi xalqaro (JST/WHO, UNICEF) va O'zbekiston manbalaridan foydalanildi. Maqoladagi ma'lumotlar ijtimoiy ishchilar, pedagoglar, bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan ota-onalar va boshqalar uchun foydali bo'ladi.

Kalit so'zlar: bolalarga nisbatan zo'ravonlik, zo'ravonlikning oldini olish, bolalar huquqlari, psixologik omillar, ta'lim muassasalari, davlat siyosati.



Abstract: This article analyzes instances of violence against children, its theoretical foundations, statistical data, social factors influencing violence, social and legal consequences, as well as international and national experiences in prevention. It highlights how growing up in violent environments negatively affects children's psychological condition, social adaptation, and future personality development. The aim of the research is to analyze the socio-psychological condition of children growing up in violent environments, examine existing legal mechanisms, and identify effective approaches for their protection. The study uses international (WHO, UNICEF) and Uzbek sources from 2020–2025. The information presented will be beneficial for social workers, educators, child-care specialists, parents engaged in upbringing, and others.

Keywords: violence against children; prevention of violence; child rights; psychological factors; educational institutions; state policy.

Аннотация: В статье анализируются случаи насилия в отношении детей, теоретические основы данного явления, статистические данные по этой проблеме, социальные факторы насилия, социальные и правовые последствия, а также международный и национальный опыт профилактики насилия. Освещается негативное влияние насильственной среды на психологическое состояние детей, их социальную адаптацию и формирование личности в будущем. Цель исследования – анализ социально-психологического состояния детей, растущих в условиях насилия, изучение существующих правовых механизмов и выявление эффективных подходов к их защите. При изучении и анализе использовались международные (ВОЗ, ЮНИСЕФ) и узбекские источники за 2020–2025 гг. Информация, представленная в статье, будет полезна социальным работникам, педагогам, специалистам, работающим с детьми, родителям, занимающимся воспитанием детей, и другим заинтересованным лицам.



Ключевые слова: насилие над детьми; профилактика насилия; права ребенка; психологические факторы; образовательные учреждения; государственная политика.

Kirish

Bolalik -inson hayotining eng toza, beg'ubor, takrorlanmas davridir. Ammo bunday beg'uborlik barcha bolalarga ham birdek nasib etmasligi, achinarli va muammoli holatdir. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik — dunyo bo'ylab keng tarqalgan ijtimoiy-huquqiy muammo bo'lib, har yili dunyo bo'ylab 2–17 yosh orasidagi taxminan 1 milliard bola — bu deyarli har ikkinchi bola — zo'ravonlik yoki e'tiborsizlikning biror shakliga duch keladi. Bunga jismoniy jazolar, jinsiy tajovuz, ruhiy tahqirlar yoki e'tiborsizlik kiradi. Bunday keng ko'lamli raqam bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligiga tahdid soluvchi global inqiroz mavjudligini anglatadi.

Bu muammoli holat BMT tomonidan 2030-yilgacha erishilishi lozim bo'lgan “Barqaror rivojlanish maqsadlari” doirasida alohida e'tiborga olingan: 16.2-maqsadga ko'ra, bolalarga nisbatan har qanday zo'ravonlikning oldi olinishi va uning barcha shakllariga barham berilishi ko'zda tutilgan. Shu bois, bu statistika shunchaki raqam emas, balki dolzarb global chaqiriqdir [1]. O'zbekistonda ham vaziyat xavotirli darajada. So'nggi Milliy indikativ klaster kuzatuv natijalariga ko'ra, 1–14 yoshdagi bolalarning 62 foizi — ya'ni har uch boladan ikkitasi — so'nggi bir oy ichida jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlikka duch kelgan. Bu shuni anglatadiki, zo'ravonlik mamlakatda alohida hol emas, balki kundalik hayotning bir bo'lagiga aylangan.

Bolalarning qariyb uchdan bir qismi — aniqrog'i, 29 foizi — jismoniy jazoga duch kelgan [2]. Bu oddiy raqam emas; bu ko'rsatkich nafaqat muammoning keng ko'lamini, balki uning ildizi jamiyatdagi qadriyatlar, tarbiya an'analari va zo'ravonlikni “intizom” deb qabul qiluvchi qarashlarda ekani haqida signal beradi. Ota-onalarning munosabati, ijtimoiy



normalar va madaniy tasavvurlar — bularning barchasi bolaga nisbatan kuch ishlatilishini oqlovchi fon sifatida mavjud.

Agar bu tendensiya davom etsa, bu nafaqat bolalarning hozirgi hayotiga, balki kelajakdagi jamiyat salomatligiga ham xavf soladi. Shunday ekan, bu raqamlar — oddiy statistik ma'lumot emas, balki jamoatchilik, siyosatchilar va mutasaddilar uchun shoshilinch chaqiriqdir.

Metodologiya va adbiyotlar tahlili

“Zo‘ravonlik” atamasi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda voyaga yetmagan shaxslarga, ya’ni bolalarga nisbatan turli ko‘rinishdagi zarar yetkazuvchi harakatlar majmuasi sifatida keng talqin qilinadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) zo‘ravonlikni shunday ta’riflaydi: bu — bolaning sog‘lig‘i, rivojlanishi va qadr-qimmatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan jismoniy, ruhiy, jinsiy suiiste’mol, beparvolik va ekspluatatsiyaning har qanday shaklidir.

Ushbu tadqiqot bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari jamiyatdagi muhim va ijtimoiy muammo sifatida o‘rganildi va mavjud huquqiy yondashuvlarning samaradorligi va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik- ijtimoiy dolzarb muammo ekanligi taxlil qilindi. Tadqiqotda aralash metodologiya usullari qo‘llanildi.

BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi”ga ko‘ra, har bir davlat bolalarni har qanday tazyiq, zo‘ravonlik, g‘amxo‘rlik qilmaslik, ekspluatatsiya va suiiste’mol holatlaridan himoya qilish uchun tegishli qonuniy va ma’muriy choralarni ko‘rishi majburiy etib belgilangan [3]. UNICEF ham bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni ko‘p qirrali ijtimoiy muammo sifatida talqin qilib, bu jarayonning jismoniy jazolash, ruhiy tahqirlash, jinsiy zo‘ravonlik, majburiy mehnatga jalb qilish, iqtisodiy cheklovlar va befarqlik shakllarini alohida ajratib ko‘rsatadi.

Ilmiy doirada bu tushuncha nafaqat huquqiy yoki tibbiy nuqtai nazardan, balki psixologik va ijtimoiy yondashuvlar orqali ham tahlil qilinadi. Masalan, amerikalik



psixolog D. Finkelhor o'zining "Childhood Victimization" asarida bolalarga nisbatan zo'ravonlikni nafaqat jismoniy yoki jinsiy tajovuz, balki ruhiy bosim va kiberzo'ravonlik kabi zamonaviy tahdidlar kontekstida ham o'rganadi. Shuningdek, Cathy Spatz Widomning "The Cycle of Violence" tadqiqotida bolalikdagi zo'ravonlik tajribasi keyingi hayotda tajovuzkor xulqning takrorlanish ehtimolini oshirishi ilmiy asosda tasdiqlangan.

Shu tariqa, zamonaviy yondashuvlarda zo'ravonlik tushunchasi ko'plab fanlar chorrahasida tahlil qilinadi va uning har bir shakli bola shaxsiyatiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan mustaqil ijtimoiy hodisa sifatida baholanadi. Maqolaga oid ma'lumotlarni tahliliy o'rganishda xalqaro va milliy statistika ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar ma'lumotlaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar

Zamonaviy holat: xalqaro va milliy statistikalar asosida

Hozirgi kunda global tadqiqotlar bolalarga nisbatan zo'ravonlik tarqalishining yuqoriligini ko'rsatmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, 5 yoshgacha bo'lgan bolalarning qariyb 60 foizi — ya'ni har beshta boladan uch nafari — ota-onalari yoki tarbiyachilari tomonidan jismoniy jazolash yoki ruhiy bosimga duch kelmoqda [4]. Bu shunchaki tarbiya choralari emas — bu kichkina bolalarning eng sezgir, rivojlanish uchun hal qiluvchi davrida zo'ravonlikka duchor bo'layotganini bildiradi.

Yana bir fojiali ko'rsatkich: 2023 yilda global miqyosda 2,3 million bola hayotining birinchi oyida vafot etgan, bu esa har kuni taxminan 6 300 yangi tug'ilgan chaqaloqning o'limi deganidir. O'zbekiston bo'yicha esa, UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, har 1 000 tirik tug'ilgan chaqaloqqa 8 ta neonatal o'lim to'g'ri keladi, bu esa har yili minglab chaqaloqlarning hayotini yo'qotishini anglatadi [5]. Bu raqamlar e'tiborsizlik va noto'g'ri muomala qanday qilib bevosita bolalarning hayotiga zomin bo'lishini ochiq ko'rsatadi. Ayniqsa, tug'ruqdan keyingi sog'liqni saqlash xizmatlarining zaifligi ushbu holatga bevosita sabab bo'lishi mumkin.



Maktab muhitida ham xavfsizlik kafolatlanmagan: butun dunyoda har to'rtinchi o'quvchi maktabda kamsitish yoki ta'qib — ya'ni bulling — qurboniga aylanmoqda. Bu esa bolalar uchun nafaqat oila, balki o'qish joyi ham xavfli hududga aylanishi mumkinligini anglatadi. Shunday sharoitda ta'lim olish, o'ziga ishonchli shaxs sifatida shakllanish — bu bolalar uchun kurashga aylanishi tabiiy [6].

O'zbekistonda ham zo'ravonlik ko'rsatkichlari yuqori: MICS ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat bo'yicha 1–14 yoshdagi bolalarning 62% so'nggi bir oy ichida jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlikka duch kelgani aniqlandi. Shu jumladan, 29% bolalar aynan jismoniy jazoga uchraganligi ma'lum qilingan [7]. Ushbu raqamlar yosh avlod xavfsizligini ta'minlashga doir choralarga ahamiyat berish naqadar zarur ekanligini ko'rsatib turibdi.

Sabablar va ijtimoiy-psixologik omillar

Zo'ravonlikni keltirib chiqaruvchi omillar murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik omillardan iborat. Asosan, ota-onalar yoki bolani tarbiyalovchi shaxslarning shaxsiy xususiyatlari va hayotiy sharoitlari zo'ravonlik xavfiga bevosita ta'sir qiladi. Masalan, alkogol yoki giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish, ruhiy salomatlik muammolari, o'zini past baholash hamda surunkali stress holatlari ota-onaning zo'ravonlikka moyilligini oshiradi.

Oiladagi muntazam mojarolar, ijtimoiy yordamning yetishmasligi yoki turmush o'rtog'i tomonidan doimiy tazyiq (ya'ni maishiy zo'ravonlik) ham muhitni beqarorlashtiradi va bolaga nisbatan zo'ravonlik ehtimolini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, jamiyat miqyosida kuzatiladigan ijtimoiy tengsizlik, kambag'allik va zararli gender stereotiplari — masalan, “ayolni urish mumkin” degan qarashlar — ham zo'ravonlikni normal hol sifatida qabul qilishga olib keladi.

Zo'ravonlikning oqibatlari

Bolalarga nisbatan zo'ravonlik bolaning jismoniy va ruhiy salomatligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dastlabki bosqichda zo'ravonlik bosh jarohatlari va boshqa og'ir tan



jarohatlari, stress buzilishlari (PTSD), bezovtalik va depressiya kabi ruhiy kasalliklar shakllanishiga olib keladi. Bunday tajriba bolaning nevro-psixologik rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin. Voyaga yetganida esa bolaligida zo'ravonlikka duch kelgan insonlar orasida depressiya, giyohvand moddalar va alkogolga qaramlik, surunkali yurak-qon tomir kasalliklari kabi holatlar ko'proq uchraydi. Bundan tashqari, bunday bolalar o'rtasida o'qishni davom ettirmaslik yoki jinoiy guruhlariga kirish kabi xavfli xulq-atvor ko'proq kuzatiladi. Misol uchun, JSST ma'lumotlariga ko'ra, bolalar zo'ravonligi sababli maktabni tugatmaslik ehtimoli taxminan 13% ga yuqoriroq [8]. Umuman olganda, zo'ravonlik bolalarning ijtimoiy moslashuvini, ta'lim va mehnat salohiyatini so'nishiga olib keladi.

Oldini olish choralar: xalqaro tajriba va milliy yondashuv

Zo'ravonlikni oldini olish bo'yicha xalqaro hamjamiyat bir qator samarali model va tavsiyalarni ishlab chiqqan. Misol uchun, JSST va UNICEF hamkorligida yaratilgan INSPIRE strategiyasida ota-onalarni qo'llab-quvvatlash (tarbiyaviy mahorat kurslari), sifatli ta'lim va ijobiy maktab muhitini yaratish, shuningdek, zararli an'analarni o'zgartirish kabi choralar tavsiya etiladi. Ushbu yondashuv ijobiy tarbiya usullarini targ'ib qilish, oilalarni qo'llab-quvvatlash xizmatlarini kuchaytirish va jamiyatda zo'ravonlikni normal deb qabul qiluvchi fikrlarni o'zgartirishga qaratilgan.

O'zbekistonda ham zo'ravonlikni oldini olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2024-yilning oxirida qabul qilingan "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish" Qonuni oilalarda va ta'lim muassasalarida zo'ravonlik asosidagi tarbiyaviy choralardan voz kechishni nazarda tutadi. Sog'liqni saqlash tizimida UNICEF bilan hamkorlikda 50 mingga yaqin patronaj hamshirasi tayyorlandi; ular oilalarga tashrif buyurib, zo'ravonlik alomatlarini aniqlash va oilaviy muammolarni bartaraf etishga yordam beradi [9]. Bu kabi amaliy chora-tadbirlar va jamoatchilik dasturlari bolalar va oilalarni qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi.



Maktab muhitida xavfsiz va hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish zo'ravonlikni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq, ta'lim muassasalarida jismoniy jazolar va haqoratli tarbiya usullaridan foydalanish qat'iy taqiqlangan. Maktab va bog'chalarda zo'ravonlik va bullingni oldini olish bo'yicha maxsus dasturlar joriy etilib, har bir muassasada mas'ul xodim tayinlanadi. Ushbu chora-tadbirlar, xalqaro tajribaga mos ravishda, bolalar uchun ijobiy ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan.

Davlat siyosati va huquqiy mexanizmlar

O'zbekiston Respublikasi bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro majburiyatlarini BMTning Bolalarning huquqlari to'g'risidagi konventsiyasini (1994 yilda ratifikatsiya qilingan) qabul qilish orqali belgilab bergan. Yaqinda qabul qilingan qonun ushbu majburiyatni yanada mustahkamlab, zo'ravonlik tushunchasining barchagina shakllarini keng qamrovli ta'riflaydi. Qonunda jismoniy va ruhiy zo'ravonlik, jinsiy tajovuz, majburiy ekspluatatsiya, e'tiborsizlik va bolalarni ta'qib qilish kabi 6 asosiy shakl taqiqlanganligi ko'rsatilgan [10].

Ta'lim sohasi bo'yicha siyosat ham muhim chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Qonunga ko'ra, maktab va bog'chalarda o'quvchilarga nisbatan jismoniy jazolar, haqorat va boshqa kamsituvchi munosabat turlariga yo'l qo'yilmaydi. Maktab rahbarlari voyaga yetmaganlar uchun xavfsiz, zo'ravonlikdan xoli muhitni ta'minlashi va zo'ravonlik sabablari bartaraf etilishini nazorat qilishi lozim. Shuningdek, O'zbekiston-2030 strategiyasining yoshlar va ta'lim yo'nalishi doirasida zo'ravonlik holatlarining oldini olish, ularni aniqlash va yechish uchun maxsus kurslar va dasturlar ishlab chiqilishi belgilangan va bu borada bir qancha amaliy ishlar qilinmoqda. Ammo bu borada hali qilinishi lozim bo'lgan ishlar ham talaygina.



Xulosa va amaliy tavsiyalar

Bolalarga nisbatan zoʻravonlik masalasi jahon hamjamiyatida va milliy miqyosda dolzarb va kompleks ijtimoiy muammo boʻlib qolmoqda. Mazkur tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, bolalarning zoʻravonlik muhitida oʻsishi ularning ruhiy, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishiga uzoq muddatli salbiy taʼsir koʻrsatadi. Shu sababli mazkur muammoni hal qilish uchun quyidagi amaliy choralarni koʻrish lozim:

1. Huquqiy choralarni kuchaytirish:

Zoʻravonlikning barcha shakllarini aniq va qatʼiy taqiqlovchi qonunlar qabul qilinib, amaliyotda samarali tarzda qoʻllanishini taʼminlash zarur.

Taʼlim va oilaviy muassasalarda jismoniy jazolash hamda ruhiy bosim usullaridan voz kechishni qatʼiy nazorat ostiga olish kerak.

2. Oilaviy qoʻllab-quvvatlash va erta aniqlash mexanizmlarini rivojlantirish:

Patronaj xodimlarining sonini va sifatini oshirish orqali oilalarga tizimli psixologik va ijtimoiy yordam koʻrsatish lozim.

Zoʻravonlik belgilarini erta aniqlash uchun sogʻliqni saqlash va taʼlim muassasalarida muntazam monitoring va profilaktika dasturlarini kengaytirish kerak.

3. Taʼlim muassasalarida profilaktik tadbirlarni kuchaytirish:

Maktab va bogʻchalarda bulling va kiber zoʻravonlikning oldini olish boʻyicha maxsus dasturlar joriy etilishi zarur.

Oʻquvchilarga psixologik xizmatlar va ishonch telefonlari kabi yordam vositalarini samarali tashkil qilish muhim.

4. Statistik maʼlumotlarni muntazam yigʻish va monitoring qilish tizimini yaratish:

Zoʻravonlik holatlari haqida maʼlumotlarni doimiy ravishda yigʻish, tahlil qilish va natijalarga asoslangan siyosiy qarorlar qabul qilish zarur.

5. Ota-onalar va tarbiyachilar uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish:



Farzand ko'rish, tarbiya madaniyati, bolalar bilan muloqot qilish usullari bo'yicha qo'llanmalar va video darslar ishlab chiqish va ommalashtirish lozim.

Jamiyatda zo'ravonlikni normal deb qabul qiluvchi zararli an'analar va stereotiplarni bartaraf etishga yo'naltirilgan ma'rifiy dasturlarni kuchaytirish kerak.

6. JSST va xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etilgan INSPIRE strategiyasiga muvofiq milliy siyosatni takomillashtirish:

Ushbu strategiya orqali muammoni aniqlash, profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish hamda samaradorligini monitoring qilish orqali bolalar xavfsizligini ta'minlashga erishish mumkin.

7. OAVida: telvidiniya, Internet saytlarida zo'ravonlik g'oyalari bilan sug'orilgan va unga undovchi multfilimlar, kino filimlar, videoroliklar va shunga o'xshash ma'lumot tarqatuvchi va ta'sir ko'rsatuvchi vositalarni qat'iy tartibga solish lozim.

Shunday qilib, bolalar xavfsizligini ta'minlash faqatgina davlatning emas, balki butun jamiyatning faol ishtirokini talab qiladi. Bu jarayonda qonun ijodkorlari, ta'lim muassasalari, ota-onalar va keng jamoatchilik hamkorlikda harakat qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Health Organization. (n.d.). Violence against Children. Retrieved May 15, 2025, from <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/violence-against-children>
2. Daryo.uz. (2022, 17-noyabr). Zo'ravonlik, o'lim, to'yib ovqatlanmaslik: O'zbekistonda bolalar o'rtasida olib borilgan tahlillar e'lon qilindi. Retrieved from <https://daryo.uz/2022/11/17/zoravonlik-olim-toyib-ovqatlanmaslik-ozbekistonda-bolalar-ortasida-olib-borilgan-tahlillar-elon-qilindi>
3. UNICEF. (2017). Violence against children: The hidden crisis. Retrieved from <https://www.unicef.org/media/83206/file/Violence-Against-Children-ToC.pdf>



4. <https://data.unicef.org/topic/child-protection/violence/violent-discipline/>
5. <https://data.unicef.org/country/uzb/>
6. Dadaboyev, O. (2025, 14-may). Bolalarga zo‘ravonlik emas, mehr ko‘rsataylik! O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. Retrieved from https://uza.uz/oz/posts/bolalarga-zoravonlik-emas-mehr-korsataylik_715023
7. Daryo.uz. (2022, 17-noyabr). Zo‘ravonlik, o‘lim, to‘yib ovqatlanmaslik: O‘zbekistonda bolalar o‘rtasida olib borilgan tahlillar e‘lon qilindi. <https://daryo.uz/2022/11/17/zoravonlik-olim-toyib-ovqatlanmaslik-ozbekistonda-bolalar-ortasida-olib-borilgan-tahlillar-elon-qilindi>
8. World Health Organization. (2024, June 6). Child maltreatment. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/child-maltreatment>
9. UNICEF. (2017). Violence against children: The hidden crisis. <https://www.unicef.org/media/83206/file/Violence-Against-Children-ToC.pdf>
10. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. (2024, 14-fevral). Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik: yangi qonun qabul qilindi. Retrieved from <https://uza.uz/oz/posts/bolalarga-nisbatan-zoravonlik-yangi-qonun-qabul-qilindi>
11. Tagaymuratova, G. T. (2023). BIOTIBBIYOTDA ZAMONAVIY ILMIY YANGILIKLAR VA ULARNING AXLOQIY MUAMMOLARI. Academic research in educational sciences, 5(NUU Conference 2), 677-684.
12. Tuychiyevna, T. G. (2024). DIGITAL TECHNOLOGY AND ITS CAPABILITIES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. International Journal Of Management And Economics Fundamental, 4(02), 27-31.
13. Mamatmoratovna, X. D., & Xolmatova, G. U. (2025). YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI DOIRASIDA TA‘LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING AHAMIYATI. YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(6), 64-67.



14. Tog'aymurotova, G. T. Y. (2022). BIOETIKANING PAYDO BO'LISHI UCHUN TARIXIY ZARURIYATNING YUZAGA KELISHI. Academic research in educational sciences, 3(NUU Conference 2), 479-486.
15. Tagaymuratova, G. T. (2024). RAQAMLI DUNYO VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR. Academic research in educational sciences, (3), 574-578.